

Date: 13th June-2026

**FARG'ONA - MARG'ILON - QO'QON POLITSENTRIK
AGLOMERATSIYASINING SHAKLLANISH OMILLARI DEMOGRAFIK -
HUDUDIIY XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI**

Payzullayev Marufjon Abduxoliquovich

Andijon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Xalilov Boburxon Malikjon o'g'li

Andijon davlat pedagogika instituti talabasi

O'zbekiston, Andijon

Annotatsiya. Ushbu maqolada Farg'ona vodiysidagi Farg'ona, Marg'ilon va Qo'qon shaharlariga asoslangan politsentrik aglomeratsiyalarining shakllanish jarayoni, asosiy omillari, demografik va hududiy xususiyatlari hamda kelajakdagi rivojlanish yo'nalishlari tahlil etilgan. Aglomeratsiyalar aholisi o'sish ko'rsatkichlari ilmiy taxlil etilgan. Shu bilan birga, aholi sonining ko'payishi, mehnat resurslari salohiyatini oshishi, ish o'rinlari, uy-joy, ta'lim, sog'liqni saqlash va infratuzilma bilan bog'liq muammolarni ham chuqur tahlil etilgan. Maqolada ushbu jarayonlarning sabab va oqibatlarini ilmiy statistik asosda tahlil qilinib, shahar hududlari rivojlanishini barqarorlashtirish bo'yicha xulosa va takliflar ishlab chiqilgan. Maqolada mazkur aglomeratsiyalarning markaziy yadro, kuchli ta'sir zonasi va sust ta'sir zonalarini bo'yicha ilmiy tasnifi ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: Farg'ona, Marg'ilon, Qo'qon, politsentrik aglomeratsiya, urbanizatsiya, demografik rivojlanish, demografik jarayon, hududiy tuzilma, transport aloqalari, iqtisodiy ixtisoslashuv.

**FORMATION FACTORS, DEMOGRAPHIC AND TERRITORIAL
CHARACTERISTICS, AND DEVELOPMENT PROSPECTS OF THE FERGANA-
MARGILAN-KOKAND POLYCENTRIC AGGLOMERATION**

Payzullaev Marufjon Abdukholikovich

Teacher at Andijan State Pedagogical Institute

Xalilov Boburxon Malikjon o'g'li

Student at Andijan State Pedagogical Institute

Uzbekistan, Andijan

Abstract. This article analyzes the formation process, main factors, demographic and territorial features, as well as future development directions of the polycentric agglomeration based on the cities of Fergana, Margilan, and Kokand in the Fergana Valley. The population growth indicators of the agglomerations are scientifically examined. Along with this, the problems associated with population increase, growth of labor resource potential, employment, housing, education, healthcare, and infrastructure are analyzed in depth. The article examines the causes and consequences of these processes based on scientific and statistical data and develops conclusions and



Date: 13th June-2026

recommendations for ensuring the sustainable development of urban territories. The scientific classification of the mentioned agglomeration according to the central core, zone of strong influence, and zone of weak influence is also highlighted.

Keywords: Fergana, Margilan, Kokand, polycentric agglomeration, urbanization, demographic development, demographic processes, territorial structure, transport links, economic specialization.



KIRISH. Agglomeratsiya - bu bir-biriga yaqin joylashgan shaharlar va ular atrofidagi aholi punktlari o'rtasida ishlab chiqarish, xizmatlar, transport, mehnat bozori va kundalik migratsiya orqali vujudga keladigan yaxlit hududiy-iqtisodiy tizimdir.[10] Ilmiy adabiyotlarda u aholi, korxonalar va infratuzilmaning zichlashuvi hamda ular o'rtasidagi o'zaro ta'sirning kuchayishi sifatida ta'riflanadi. OECDning funksional shahar hududlar yondashuvi bo'yicha esa agglomeratsiya shahar markazi va uning kundalik ishga qatnov zonasi (commuting zone) orqali belgilanadi.[8] Bu yondashuv ma'muriy chegaralardan ko'ra iqtisodiy va mehnat aloqalarini ustun qo'yadi.

Farg'ona viloyati tabiiy-geografik va iqtisodiy jihatdan bunday tizim shakllanishi uchun juda qulay hudud hisoblanadi. 2026-yil 1-aprel holatiga viloyat aholisi 4 239,4 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, shahar aholisi ulushining 56,7 foizga yetishi urbanizatsiya jarayonining jadalligini ko'rsatadi. Farg'ona, Qo'qon va Marg'ilon shaharlari atrofidagi tuman va shaharchalar bilan birgalikda yagona funksional makonni hosil qiladi.

Agglomeratsiya odatda bir markazda aholi, ish o'rinlari, xizmatlar va infratuzilma bilan birgalikda shakllanadi va vujudga keladi. Keyinchalik shu markaz atrofidagi shahar va shaharchalar unga bog'lanib, yagona funksional hududga aylanadi. Bunda transport xarajatlarining kamayishi, bozorning kattalashuvi, ishchi kuchining erkin harakati va xizmatlarga bo'lgan talabning ortishi hal qiluvchi rol o'ynaydi.[4] Shahar agglomeratsiyalari borasidagi ilmiy tadqiqotlar ham aynan yaqin joylashuv va iqtisodiy aloqalar kuchayishini ko'rsatadi, ularning asosiy belgisi ekanini bildiradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Farg'ona - Marg'ilon va Qo'qon tizimi "Yangi O'zbekiston"da jadal shakllanib rivojlanib bormoqda. Farg'ona shahri 336,4 ming aholi bilan boshqaruv va xizmatlar markazi, Qo'qon 321,0 ming aholi bilan savdo va transport tuguni, Marg'ilon 262,9 ming aholi bilan hunarmandchilik va to'qimachilik markazi sifatida bir biridan ajralib, bir birini to'ldirib turadi. Quvasoy 105,2 ming aholi bilan bu tizimga tutash shahar markazlardan biri bo'lib, viloyatdagi shaharlararo bog'liqlikni yanada kuchaytiradi. Bu raqamlar alohida shaharlardan ko'ra ko'proq, bir-birini to'ldiruvchi urbanizatsion yadro shakllanayotganini ko'rsatadi.

Farg'ona - Marg'ilon va Qo'qon agglomeratsiya tizimining eng muhim xususiyati uning politsentrikligidir. Ya'ni bu hududda bitta hukmron markaz emas, balki bir necha kuchli markaz mavjud. Farg'ona shahri ma'muriy va xizmat ko'rsatish markazi bo'lsa, Marg'ilon an'anaviy hunarmandchilik va mato ishlab chiqarish bilan ajralib turadi, Qo'qon esa transport, savdo va sanoat tuguni sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois bu hududda ishlab chiqarish, xizmat, savdo va transport faoliyatlari bir markazga emas, bir nechta markazga taqsimlangan holda ishlaydi.

Date: 13th June-2026



Ikkinchi muhim xususiyati bu - aholi va mehnat faoliyatining yuqori darajada to'planishi. 2026-yil 1-aprel holatiga Farg'ona viloyatining doimiy aholisi 4 239,4 ming kishiga yetgan, 2026-yil boshida esa shahar aholisi 56,7 foizni tashkil etgan. Bunday ko'rsatkichlar yer, uy-joy, transport, suv, energiya va ijtimoiy infratuzilmaga bosimni kuchaytiradi. Shu sababli aglomeratsiya faqat o'sish emas, balki o'sishni boshqarish talabi bilan ham ajralib turadi.

Uchinchi xususiyat - kundalik migratsiya va transport bog'liqligi. Aglomeratsiya ichida aholi ishga, o'qishga, bozorga va xizmat olishga muntazam qatnaydi. OECD va boshqa urbanizatsiyaga oid tadqiqotlarda aynan travel-to-work flows, ya'ni ishga qatnov oqimlari funksional aglomeratsion hududni aniqlovchi muhim belgi sifatida olinadi. Shuning uchun Farg'ona, Marg'ilon va Qo'qon orasidagi aloqalar geografik yaqinlikdan ko'ra kengroq, funksional yaqinlikni ham ifodalaydi.

To'rtinchi xususiyat - iqtisodiy ixtisoslashuv. Farg'ona viloyatida 2026-yil yanvar - mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 15 031,4 milliard so'mlik xizmatlar ko'rsatilgan bo'lib, xizmatlar hajmining eng katta ulushi Farg'ona shahariga 16,9 foiz, Qo'qon shahariga 8,0 foiz va Marg'ilon shahariga 5,2 foiz to'g'ri kelgan. Bu ma'lumotlar shahar markazlarning iqtisodiy vazifasi kuchli ekanini, ayniqsa xizmatlar sohasi aglomeratsiyaning ichki tayanchiga aylanganini ko'rsatadi.

Aglomeratsiya shakllanishida birinchi navbatda demografik omil muhim rol o'ynaydi. Farg'ona viloyatida aholi sonining yuqoriligi va shahar markazlarining yaqin joylashuvi yirik mehnat bozori va keng iste'mol maydonini yaratadi. 2026-yil 1-aprel holatida Farg'ona viloyatining doimiy aholisi 4 239,4 ming kishiga yetgani, Farg'ona, Qo'qon va Marg'ilonning birgalikda katta aglomeratsiya bazasini hosil qilayotganini tasdiqlaydi.


Ikkinchi omil - iqtisodiy konsentratsiya. Hududda savdo, xizmat, kichik biznes va transport faoliyati bir joyga jamlangan. 2026-yil yanvar - mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga 10 299,3 milliard so'm investitsiya yo'naltirilgan bo'lib, bu aglomeratsiya hududida iqtisodiy faollik yuqori ekanini bildiradi. Xuddi shu davrda Farg'ona viloyatida 1,9 km gaz tarmog'ining barchasi ishga tushirilgan bo'lib, bu infratuzilma kengayishining aniq belgisi xisoblanadi.

Uchinchi omil - tarixiy-shaharsozlik davomiyligi. Qo'qon va Marg'ilon qadimdan savdo, hunarmandchilik va madaniyat markazlari bo'lib kelgan. Farg'ona esa keyinroq shakllangan bo'lsada, hozirgi davrda ma'muriy, xizmat va ishlab chiqarish markazi sifatida ularga ulanib ketgan. Aglomeratsiyaning tarixiy ildizi mana shu uch markazning turli funksiyalarni bir - biriga bog'lay olganidadir.

To'rtinchi omil - transport va xizmatlar tarmog'ining rivojlanishi xisoblanadi. Aglomeratsiya markazlari o'rtasidagi qatnov oqimlari ortishi bilan iqtisodiy makon kengayib boradi. Farg'ona viloyatida savdo xizmatlari hajmi 2026-yil yanvar - aprel oylarida 7,5 trln so'mga yetgani ham hududning bozor salohiyati yuqoriligini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkichlar shahar markazlarning faqat yashash joyi emas, balki faol iqtisodiy tugun ekanini tasdiqlaydi.

1-rasm

Date: 13th June-2026



Farg'ona - Marg'ilon va Qo'qon aglomeratsiyasining hududiy tuzilishini markaz, kuchli ta'sir zonasi va sust ta'sir zonasi sifatida talqin qilish mumkin. Bu tasnif rasmiy ma'muriy bo'linish emas, balki funksional shahar hududlarni tahlil qilishga xizmat qiluvchi ilmiy yondashuv hamdir. OECDning functional urban area konsepsiyasi va Swiss Federal Statistical Office tomonidan berilgan agglomeration core va commuting zone tushunchalari aynan shunday tahlilga asos bo'la oladi.[8]

Markaziy yadroga Farg'ona, Marg'ilon va Qo'qon kabi yirik shahar markazlar kiradi. Bu hududlarda aholi zichligi, xizmatlar, ish o'rinlari, savdo va transport eng yuqori darajada jamlangan hamdir. Bu markazlar aglomeratsiyaning boshqaruv nuqtasi bo'lib xizmat qiladi va qolgan hududlarga iqtisodiy "radiatsiya" beradi.

Kuchli ta'sir zonasi - markazga yaqin tuman markazlari va shaharchalar kiradi. Bu hududlarda aholi ko'proq ish, ta'lim, bozor va xizmatlar uchun yadro shaharlarga qatnaydi. Natijada ular bevosita markaz bilan bog'lanib, mehnat bozori va iste'mol maydonining kengaygan qismiga aylanadi va tebranma migratsiyada ham ishtirok etadi.

Sust ta'sir zonasi esa markazdan uzoqroq joylashgan periferik hududlardan iborat bo'lib, ularda ham aglomeratsiya ta'siri saqlanadi, lekin zichlik va bog'liqlik darajasi kamroq bo'ladi. Bunday hududlarda xizmatlar, investitsiya va transport oqimi markazdagidek intensiv emas. Shu sababli ularning rivojlanishi ko'proq aglomeratsiya yadrosining tortish kuchiga bog'liq bo'ladi.

Farg'ona - Marg'ilon va Qo'qon aglomeratsiyasining eng muhim rivojlanish xususiyati - ko'p funksionalidir. Hududda sanoat, xizmatlar, savdo, transport, hunarmandchilik, qurilish va turizm bir - birini to'ldiradi. Bu jarayonlar shaharlar tizimni barqarorligini oshiradi va ularni bir yo'nalishga qaram bo'lib qolishdan saqlaydi.

Date: 13th June-2026



Ikkinchi xususiyati bu - hududiy kengayishi va infratuzilmani rivojlanishidir. Fargʻona viloyatida 2026-yil yanvar - mart oylarida investitsiyalar yoʻnaltirilishi va gaz tarmoqlarining ishga tushirilishi urbanizatsiya hududini kengayib borayotganligini koʻrsatadi. Bu holat shaharlararo aloqalarni mustahkamlaydi, yangi massivlar va xizmatlar hududining paydo boʻlishiga imkon yaratadi.

Uchinchi xususiyati - markazlashuv bilan birga bosimning ham ortib borishi xisoblanadi. Aholi va iqtisodiy faollikning markazlarda toʻplanishi yer, transport va ekologik tizimlarga bosim qiladi. Shahar aglomeratsiyalari toʻgʻrisidagi tadqiqotlar bunday hududlarda infrastruktura va muhitga tushadigan yuk ortishini qayd etadi. Shu bois aglomeratsiyani rivojlantirishda faqat qurilish emas, balki ekologik muvozanat va transportni boshqarish ham muhim masaladir.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Fargʻona - Margʻilon va Qoʻqon aglomeratsiyasi Fargʻona vodiysining eng kuchli shahar tuzilmalaridan biri xisoblanadi. Aglomeratsiyalar aholi sonining kattaligi, shaharlararo yaqinlik, politsentrik tuzilma, xizmatlar va transport aloqalarining kuchliligi, investitsion faollik hamda tarixiy - shaharsozlik davomiyligi asosida shakllanayotganligidan darak beradi. Rasmiy statistik maʼlumotlarga koʻra viloyatda shahar aholi ulushi yuqoriligini, yirik shaharlarning esa kuchli iqtisodiy va demografik tayanchga ega ekanini koʻrsatadi. Funksional urbanistik yondashuv esa bu hududni markaziy yadro, kuchli taʼsir zonasi va sust taʼsir zonalaridan iborat murakkab tizim sifatida koʻrishga imkon beradi. Demak, mazkur aglomeratsiyalarning kelajakdagi rivojlanishi sanoat va xizmatlar oʻsishi bilan birga, transportni uygʻunlashtirish, ekologik yuklamani kamaytirish va hududiy boshqaruvni ilmiy asosda takomillashtirishga bogʻliqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-5623-sonli Farmoni. 10.01.2019. <http://lex.uz>
2. **Oʻzbekiston Respublikasi** milliy statistika qoʻmitasi maʼlumotlari. <https://stat.uz>
3. Лаппо Г.М. География городов.- М., 1997.
4. Payzullayev M.A. Urbanization processes of the Fergana Valley // Экономика и социум (электронное научно-практическое периодическое международное издание). – Саратов (Россия). Выпуск №6 (97)-1, 2022. ISSN: 2225-1545 (11.00.00; №11). C.1176-1180.
5. Payzullayev M.A. Characteristics of formation and development of agglomerations in the Fergana Valley // Экономика и социум (электронное научно-практическое периодическое международное издание). – Саратов (Россия). Выпуск №6 (97)-2, 2022. ISSN: 2225-1545 (11.00.00; №11). -С. 186-192.
6. Payzullayev M.A. THEORETICAL ISSUES OF THE SCIENTIFIC RESEARCH OF THE DEVELOPMENT OF URBAN AGGLOMERATIONS OF FERGANA // Экономика и социум (электронное научно-практическое периодическое

Date: 13th June-2026

международное издание). – Саратов (Россия). Выпуск №4 (107)-1, 2023. ISSN: 2225-1545 (11.00.00; №11). –С. 233-238.

7. Payzullayev M.A. Economic Geographical Aspects Of The Formation And Development Of Agglomerations // Eurasian Journal of History, Geography and Economics. – Brussels (Belgium). Volume №19, 2023. ISSN (E): 2795-7659, JIF: 8.125. – S. 30-33.

8. United Nations. World Urbanization Prospects: The 2025 Revision. New York: UN DESA, 2025.

9. Перцик Е.Н. Геоурбанистика. Учебник. – М.: ЮРАЙТ, 2016.

10. Soliyev A., Tashtayeva S., Egamberdiyeva M. Shaharlar geografiyasi.-T., 2020.

